
IMOM-XATIBLAR BILAN SUHBAT



Qo'shtepa tumanidagi "Muborak" jome masjidida tuman bosh imom-xatibi A.Axmadaliyev hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tumani bo'linmasi rahbari N.Otabekovlar ishtirokida davra suhbatini bo'lib o'tdi. Unda tumanimizdagi masjidlarda faoliyat olib borayotgan imom-xatiblar qatnashdilar.

Tadbirda tuman bosh imom-xatibi A.Axmadaliyev so'z olib, bugungi kunda Muhtaram yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar, yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarga, ayniqsa yoshlarmizga berilayotgan e'tibor va imkoniyatlar haqida gapirib o'tdi.

- Bu yilgi "Mohi ramazon" oyi ham yaqinlashib kelmoqda - deydi A.Axmadaliyev. - Bu oyda musulmonlarning xayru saxovati, mehr-muruvvati har qachongidan ko'ra jo'shib, himmatlari yuksalib, shijoatlari to'liqlanib ketadi. Shuning uchun Ramazonda mo'min-musulmonlar orasidagi mehr-oqibat, ahillik, birodarlik, bag'rikenglik tuyg'ulari yanada mustahkamlanadi. Bizlar ham "Mohi ramazon" oyiga tayyorgarlik ko'rib, eng avvalo masjidlarimizni tozaligiga, namoz o'qish joylarimizni pokizaligiga e'tibor berishimiz kerak.

Tuman bosh imom-xatibi ramazon oyiga tayyorgarlik ko'rishda yuqoridagi jixatlarga e'tibor qaratilishi to'g'risida imom-xatiblariga topshiriq va ko'rsatmalar berib o'tdi.



Shundan so'ng tadbirda ishtirok etayotgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tumani bo'linmasi rahbari N.Otabekov so'z olib yurtimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarga alohida to'xtalib o'tdi.

Shuningdek, imom-xatiblar bilan bo'lib o'tgan samimiy suhbat davomida kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni hamkorlikda yo'lga qo'yish va yanada kuchaytirish yuzasidan kelishib olindi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-02-25 13:00:43